



TIL — MILLAT KO‘ZGUSI

G‘ulomzokirova Mohinur Muzaffar qizi

Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 26-sonli
umum o‘rta ta’lim maktabi 11-B sinf o‘quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining milliy tili deb hisoblanadigan o‘zbek tili haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, tilning nima ekanligi va uning ahamiyati, o‘zbek tili to‘g‘risidagi qonunning tashkil topishi va unga “davlat tili” maqomi berilishi, o‘zbek tili to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan farmonlar va ularning qanday ijro etilishi-yu o‘ziga xos talablar, o‘zbek tilining qanday tarzda va qachon tashkil topgani va rivojlanish bosqichlari, tarixda o‘zining o‘chmas izlarini qoldirgan buyuk shaxslarning til haqidagi fikr-mulohazalari ham ushbu maqoladan joy olgan.

Kalit so‘zlar: til, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoyev, davrlar, “davlat tili”, tadbir.

Аннотация: В данной статье рассматривается узбекский язык, который считается национальным языком Республики Узбекистан. Также, что такое язык и его значение, установление закона об узбекском языке и его статуса «государственного языка», указы об узбекском языке, утвержденные Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым и как они исполняются. и их конкретные требования, как и когда формировался узбекский язык и этапы его развития, мнения о языке великих людей, оставивших свой неизгладимый след в истории, также включены в данную статью.

Ключевые слова: язык, Алишер Навои, Шавкат Мирзиёев, периоды, «государственный язык», событие.

Annotatsiya: This article discusses the Uzbek language, which is considered the national language of the Republic of Uzbekistan. Also, what is language and its meaning, the establishment of the law on the Uzbek language and its status as the “state language”, decrees on the Uzbek language approved by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev and how they are implemented. and their specific requirements, how and when the Uzbek language was formed and the stages of its development, opinions about the language of great people who left their indelible mark on history are also included in this article.

Key words: language, Alisher Navoi, Shavkat Mirziyoyev, periods, “state language”, event.

Kirish. Til – davlat timsoli, mulki, ruhi, millatning madaniy va ma’naviy boyligi, xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir.

Til – bu xalqning ruhi va uning egasi – bu xalqning o‘zi. Olamning gultoji bo‘lgan insonga tuhfa qilingan til uning mislsiz boyligi hisoblanadi. O‘zbek tilining borlig‘i, boyligi, bo‘y-basti-yu butunligini ko‘rsata olgan filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov ta’kidlaganlaridek, “Odamni, olamni va Olloho ni tanimoqday mashaqqatli, sharafli yo‘lning avval-oxir charog‘boni shu tildir. Dunyoda o‘zining kimligini anglash, qavmining hamiyati va hurligini ko‘rish



tuyg‘usi ham, avvalo, til tufayli poydordir. Ona tilining inson va aqliy va ma’naviy-ruhiy dunyosining tayanchi ekanligidan iborat haqiqatni hushi o‘zida bo‘lgan odamlarning barchasi e’tirof etadi.” Shuningdek, o‘ziga xos tafakkur va taxayyul intizomining tarhi, o‘zgadan qarz olmagan izchil idrok tarzidir.

Har qanday milliy til o‘zida shu tilda so‘zlovchi xalqning estetik, axloqiy-badiiy va falsafiy, diniy-etnografik, tarixiy va ijtimoiy, mafkuraviy va ma’naviy qarashlarini, ular haqidagi tushunchalar, tasavvurlar, kategoriylar, mushohadalarni o‘zida ifoda etadi hamda buyuk merosni avloddan avlodga olib o‘tuvchi, ularni asrovchi va saqlovchi ma’naviy qurolga, xazinaga aylanadi. Shu sababli ham tilni shunchaki aloqa quroli deb bilish va baholash mantiqqa mutlaqo to‘g‘ri emas.

Xalqning o‘lmasligi – uning tilida mujassam bo‘ladi. Milliy til – hech bir millatni tasavvur qilib bo‘lmaydigan tarixidir. Til muloqot qilish uchun zarur, u o‘ziga xosligidan dalolat beradi, millatning ma’naviy salohiyatini belgilaydi. Aynan shu tilga xalq tarixi va davlat taraqqiyotining aksi bo‘lish huquqi beriladi.

Dastavval shuni aytish kerakki, o‘zbek tilini davlat tili darajasida ko‘tarish, uni ravnaq toptirish uchun buyuk bobokalonimiz hazrati Mir Alisher Navoiy ko‘p kuch sarf qildi. U o‘zining ”Xamsa”, ”Xazoyin ul-maoniy”, ”Muhokamatul-lug“atayin” kabi qator o‘lmas asarlarini shu tilda yaratdi. U o‘z asarlarida o‘zbek tilining keng imkoniyatlarini, uning boyligi, moslashuvchanligi va nafisligini namoyish etganligi bilan ham ahamiyatlidir. Sulton Husayn homiylik qilib, A. Navoiyning bu sohadagi ishlarini qo‘llab-quvvatlagan hamda maxsus farmon bilan o‘zbek tiliga davlat tili maqomini bergen edi. O‘tgan besh asrdan ko‘proq davrda o‘zbek tilining ahamiyati kamaygani yo‘q. Ammo yetmish yillik mustabid tuzumining siyosati sababli o‘zbek tilining ish ko‘rish doirasi chegaralanib qoldi va ahamiyati pasayib ketgan edi. Xalqimiz doim mustaqil bo‘lish, erkin yashash yo‘lida kurashib keldi va Cho‘lpon, Fitrat, A.Qodiriy , A.Avloniy, G.G‘ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor kabi siymolar adabiy tilimizning ravnaqi yo‘lida timmay ijod qildilar. Va albatta, bu kurashlar samarasiz ketmadi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Unga ko‘ra o‘zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi mavqeini yanada oshirish, ”Davlat tili haqida”gi qonunni bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish zarurligini ta’kidlab, bu boradagi dolzarb vazifalarni ko‘rsatdi. Davra suhbatida o‘zbek tilining huquqiy maqomini belgilashda yengib o‘tilgan



qiyinchiliklardan tortib, hozirgi kunda tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanish uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda davlat tilini yangi pog‘onaga olib chiqish borasida qilinayotgan sa'y-harakatlar alohida e’tirof etildi. Tilimizni e’zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma’naviy burchimiz bo‘lib qolishiga e’tibor qaratildi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish uchun uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga kiritishda o‘z hissamizni qo‘sishimiz zarurligi hamda har birimizdan tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etishi ta’kidlandi.

Farmonga muvofiq, 2020–2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi hamda asosiy yo‘nalishlari tasdiqlanadi. Mana shundan so‘ng, bu boradagi ishlarning ijrosi tizimli ravishda davom etdi: Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi va uning tashabbusi bilan Atamalar komissiyasi tuzildi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-yanvardagi qarori bilan barcha davlat organlari, vazirliklar va ularga tenglashtirilgan tashkilotlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minalash masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimi tashkil qilindi. Shu yilning 9-mart kuni “Geografik obyektlarning nomlarini, shuningdek, jamoat joylari, ko‘chalar, binolar peshtoqidagi turli lavha va reklamalarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish masalalari hamda joylarda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20- yanvardagi 34-son qarorining ijrosi haqida” bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda aynan shu masalaga e’tibor qaratildi va davlat tilini rivojlantirish chora-tadbirlarining ijrosiga oid qat’iy talablar belgilandi. Shuncha ishlar ortidan yana, millat fidoyisi Abdulla Qodiriy bobomizning tavallud kunlarida “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni imzolandi. Unga ko‘ra, har yilning 21-oktabr kuni O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi. Endilikda u Mustaqillik bayrami kabi zalvorli, nodir va jonbaxsh, xalqning va davlatning qonuniy bayramiga aylandi. O‘zbekistonning barcha hududlarida uning keng ko‘lamda, tantanali nishonlanishi qat’iy belgilab qo‘yildi. Buni ona tilimizning haqqoniy tantanasi, davlatchilik an’analaramizning yuksak tarannumi desak arziydi.

1989-yilning 21-oktyabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash bo‘yicha “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, unga ko‘ra O‘zbek tiliga – Davlat tili maqomi berildi.



1990-yil 19-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 101 -sonli qarori bilan ushbu qonunni amalga oshirish davlat dasturi tasdiqlandi. Shu boisdan davlat dasturida ”Davlat tili haqidagi qonun qabul” etilgan kun “Ona tili kuni” deb e’lon qilindi (1-qism,7-modda).

1995-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining ”Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahriri ishlab chiqildi va amalda qo’llash uchun joriy etildi. Yangi tahrirdagi Qonun 24 bobdan iborat bo‘lib, unga mustaqillik ruhi bilan sug‘orilgan bir qancha o‘zgarishlar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-qaroriga binoan ”Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kundan e’tiboran har yili ”O‘zbek tili kuni”ni o‘tkazish, uning 0.4. bandida 21-oktyabr barcha o‘quv yurtlarida har yili — o‘zbek tili kuni sifatida nishonlanishi ta’kidlandi. Shular asosida 21-oktabr — milliy tilimiz bayrami sifatida rasmiy tarzda nishonlanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo’llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangromoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Zero, muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ”Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat, deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu oljanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak”. Faqatgina shu yo‘l orqali biz unga bo‘lgan cheksiz sevgimiz, hurmatimizni namoyon eta olishimiz mumkin.

Xulosa. Jasur va matonatli xalqimiz har qanday og‘ir sinovlarda ham o‘z ozodligi va istiqlolli uchun mardona kurashdi. Bu yo‘lda behisob qurbanlar berdi, o‘z ona tilini – milliy g‘ururini saqlab qoldi. Nafaqat saqlab qoldi, balki uni har tomonlama rivojlantirib, bugungi avlodlarga bezavol yetkazib berdi. Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning, nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Rahimov, B. Umurqulov ”Hozirgi o‘zbek adabiy tili”.



2. Tursunaliyevna, A. M. (2022). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO'NALISHLAR. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 113-116.
3. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). O 'ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
4. Sabirova, N. E. (2022). Xorazm vohasida baxshi ijrochiligi genezisi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 656-663.
5. "Sharq" jurnali 2020-yil soni.
6. "Xalq so'zi" gazetasi 2020-yil 11-aprel soni.